



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



FEYK YANGILIKLARNI ANIQLASH TEXNOLOGIYALARI

Bo‘ronov Nazim

O‘zDJTU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda feyk yangiliklarni aniqlash texnologiyalari haqida so‘z boradi. Shuningdek, ushbu muammoni oldini olishda faktcheking vositalarining samaradorligi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Feyk, fakcheking, vosita, tarmoq, texnologiyalar.

Annotation: This thesis discusses the technologies used to detect fake news. It also explores the effectiveness of fact-checking tools in preventing the spread of misinformation.

Keywords: Fake news, fact-checking, tools, network, technologies.

Feyk xabar o‘zi nima? “Feyk”- ingliz tilidan olingan bo‘lib, ya’ni soxta, uydirma, yolg‘on degan ma’nolarni anglatadi. Umuman olganda feyk asosan internet kanallari orqali tarqatilishi urf bo‘layotgan soxta xabarlar yoki ma’lumotlardan iborat.

“Feyk” so‘zining yigirmadan ortiq ma’nolari bo‘lib; **soxta, yolg‘on, qalbaki, haqiqiy emas, bo‘xton, aldoqchi, uydirma, noxolis, sun’iy, uyushtirilgan, ayyor, chalkash, nayrang, ig‘vo, xiyla, chalg‘itish** kabi so‘zlar ana shular jumlasidandir¹⁵. Odamlarni chalg‘itish, noto‘g‘ri yo‘lga boshlash, moliyaviy yoki siyosiy foyda ko‘rish maqsadlarida ma’lum bir axborotning soxtalashtirilishi yoki ijtimoiy tarmoqlar va an’anaviy **OAV** orqali yolg‘on xabarlarning tarqatilishi “fake news” deyiladi. Ular bugungi kunda yangilik emas. Misol uchun, ikkinchi jahon urushi davrida ham harbiy harakatlar paytida yolg‘on “g‘alaba” xabarları tarqaldi, uchinchi reyxning ko‘plab manipulyatsiyasi sodir bo‘ldi. **Polshaning nemis** reysiga hujumi haqida mutlaqo soxta ma’lumotlar bor edi o’sha davrlarda - natija esa halokatli oqibatlarga olib keldi - **70 million** insonni o‘z domiga olib ketgan jahon urushi boshlandi.

Keng ma’noda “Fake News” - bor narsani ko‘rsatishga qaratilgan har qanday **qalbaki, soxta yangiliklar, g‘iybat, uydirma, va maxfiy-yashirin** qoidalar aralashmasidan iborat. Bu hodisa oshkor etish osonroq bo‘lgan azaldan mavjud yolg‘on axborotdan ko‘ra xavfliroqdir. “**Feyk yangiliklar**” yolg‘on-yashiq xabarlar tarqalishdan kelib chiqadi, biroq bu hodisaning yangiliqi zarar keltirishga astoydil urunishdan iboratdir¹⁶. Axborot imkoniyatlarini cheksizlikka daxl etadi. Asossiz, uydirma xabarlarni tarqatishdan maqsad kimnidir yoki nimanidir yomonlab ko‘rsatish, noto‘g‘ri, soxta axborot tarqatish orqali axborot iste’molchilari orasida, auditoriyada muayyan tashkilot, idora davlat arbobi, siyosiy shaxs, taniqli odamlarga nisbatan ishonchsizlik paydo qilishidir. Insoniyat iste’mol qiladigan

¹⁵ Greenberg A. Inside Google’s Internet Justice League And Its Ai-Powered War On Trolls // Wired. 19.09.2016. URL: <https://www.wired.com/2016/09/inside-googles-internet-justice-league-ai-powered-war-trolls/>

¹⁶ Al-Heeti A. Facebook Will Fight Fake News with Real Newspaper Ads (and More) // CNET. May 23, 2018.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ma'lumotlar ichida eng xaridorgiri axborotdir. Ungga ehtiyoj hamisha yuqori bo'lgan. Oxirgi yillarda **OAV** axborot uzatish kanallaridan ham ko'ra fikr almashish vositasiga aylanib qolmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda borgan sari blogerlarning faoliyati ortib, jamoatchilik yetakchilarning fikrlari auditoriyani an'anaviy **OAV** va internet axborot resurslarida sekin-asta tortib olmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, forumlar, foto va video hostinglarda omma e'tiboriga havola etilayotgan materiallar foydalanuvchilar orasida keng muhokama qilinyapti¹⁷. Oddiy o'quvchi, tomashabin, tinglovchi yoki internetdan foydalanuvchilar birdaniga internetdan to'g'ri axborot bilan "**feyk yangiliklar**" ning farqini ajrata olmaydi. Ayniqsa, u jozibali, qiziquvchi tabiatiga ko'ra, rasmiy, siyqasi chiqqan, quruq, faqat faktlardan iborat bo'lgan oddiy xabarlarga qaraganda, kreativligi, shov shuvligi, e'tiborni tortishi bilan, ommani o'ziga jalb etadi¹⁸.

Faktchekerlar muammosi haqida gapirganda, shuni ta'kidlash kerakki, ular allaqachon "**zararlangan**" axborot oqimi izlari bo'ylab ishlaydi, feyklarning oshkorqilinishi dezinformatsiya asosida paydo bo'lgan tushunchalarni o'zgartirishga qodir emas. Bu xulosa "**Psychological Science**" nashri tomonidan "**Dezinformatsiyani rad qiluvchi psixologik meta-analiz**" nomi ostida chop qilingan ilmiy tadqiqot natijasiga asoslangan. Qiyinchilik tug'diradigan jihat shundaki, onlayn ravishda tarqalgan feyklarni to'g'rilash yetarli emasdek ko'rindi, sababi auditoriya aynan to'g'rilangan, haqiqiy axborotga ishonishi qiyinlashadi¹⁹. "**The Guardian**" nashrining sotsial va yangi medialar muharriri **Martin Belamning** qayd etishicha, "*bunga chek qo'yish uchun faktcheking o'z-o'zi uchun yetarli emas, biz haqiqatni tarqatishda qaysi yo'l samarali ekanini hal qilib olishimiz darkor*"²⁰. Xalqaro qidiruv tizimi Google esa dunyoning bir qancha nufuzli tahririyatlari hamkorligida eng muhim xabarlar yuzasidan verifikatsiya o'tkazadi. Masalan, qidiruv tizimiga "**Xillari Clinton Rossiyaga uran sotdi**" so'rovi kiritilsa, "**PolitiFact, Snopes va The Washington Post**" kabi eng kamida uchta tahririyat orqali tekshirilib, "*bu yolg'on yoki bu kabi kelishuv bo'Imagan*" belgisi bilan belgilangan xabarlarni chiqaradi.

Video "**YouTube**" ga joylangan bo'lsa, "**YouTube**" va "**DataViewer**" servisidan o'tkaziladi. U videoining tarmoqqa qachon yuklanganini ko'rsatadi va bir nechta skrenshotlarni chiqarib beradi. Skrenshotlar orqali qidiruv berib, shunga o'xshash videolarni qidirib ko'rish mumkin bo'ladi. "**InVID**" servisi orqali esa turli platformalardan yuklangan videolar haqida to'liq ma'lumot olish mumkin. U video internetga yuklangan paytdan boshlab bosib o'tgan yo'lini ko'rsatadi. Videoni ko'rishda mashina raqamlari, mayda yozuvlar, insonlarinng ust-boshi, binolar holatiga diqqat qaratish orqali ham videoga ishlov bergen-berilmaganini aniqlash mumkin.

¹⁷ Building a better news experience on YouTube, together. URL:<https://youtube.googleblog.com/2018/07/building-better-news-experience-on.html>

¹⁸ Chesney R., Citron D. Deep Fakes: A Looming Challenge for Privacy, Democracy and National Security // California Law Review. 2019. P. 1753-1820.

¹⁹ <https://medium.com/innovation-machine/fake-news-a-universal-solution-22895048f5e7>

²⁰ <https://www.theguardian.com/international>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Videoni skrinshot qilib, Google video orqali o‘tkazish. Shuningdek, “**TinEye**” dasturidan foydalanish. U Google video tamoyillari asosida ishlaydi. Agarda feyk video “**Youtube**” servisida joylashgan bo‘lsa, siz “**Youtube**” ajratgan miniyaturlardan foydalanishingiz mumkin.

“**Youtube**”dagi videoroliklarni “**Youtube Data Viewer**” orqali tekshirish mumkin. Mazkur servis video qachon ijtimoiy tarmoqqa joylashtirilgan vaqt va kunini ham bilish imkonini beradi. Shubhali videolarda ko‘rsatilayotgan joy, intershumlar, kadr ortidagi ovozga e’tibor bering. Agarda videoda birorta jug‘rofiy obyekt ko‘rsatilsa, uni “**Google Street View**” orqali tekshirib ko‘rib, joyni aniqash mumkin. Agarda videoning boshlang‘ich ovozi ustiga boshqa ovoz yoki musiqa yozilgan bo‘lsa (**masalan qo‘rqinchli**) yoki logotip juda yorqin bo‘lsa, mazkur video soxtalashtirilgan bo‘lishi mumkin²¹. Feyk ma’lumotlarni tarqatishning asosiy maqsadi – e’tiborni jalb qilish, odamlarni yolg‘onga ishontirishga, jamiyatda amaldagi hukumatga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqarishga va mamlakatda beqarorlikni keltirib chiqarishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda ijtimoiy tarmoqlarda feyk kontentning tarqalishi texnologik vositalar bilan amalga oshmoqda: dipfeyk videolar, botlar, algoritmik targ‘ibot va sun’iy manipulyatsiya vositalari bunga misol bo‘la oladi. Bunday holatlarda videoni tekshirishda “YouTube DataViewer”, “InVID”, “TinEye” kabi vositalardan foydalanish, kadrlardagi tafsilotlarni tahlil qilish orqali haqiqatga yaqinlashish mumkin. Ammo, bu vositalar texnik jihatdan kuchli bo‘lsa ham, keng auditoriya orasida ularni to‘g‘ri qo‘llash va tanqidiy fikrlash madaniyatini shakllantirish dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shunday ekan, feyk axborotlar bilan kurashishning asosiy vositasi — bu media savodxonlikni oshirish, axborotga tanqidiy yondashish, va mustaqil faktlarni tekshirish madaniyatini shakllantirishdir. Axborot makonida faol bo‘layotgan har bir inson feyk tahdidga qarshi immunitetga ega bo‘lishi kerak. Chunki bu masala nafaqat individual darajadagi xabardorlik, balki milliy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlik bilan chambarchas bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Greenberg, A. (2016, September 19). Inside Google’s Internet Justice League and Its AI-Powered War on Trolls. *Wired*. <https://www.wired.com/2016/09/inside-googles-internet-justice-league-ai-powered-war-trolls/>
2. Al-Heeti, A. (2018, May 23). Facebook Will Fight Fake News with Real Newspaper Ads (and More). *CNET*. <https://www.cnet.com/tech/services-and-software/facebook-will-fight-fake-news-with-real-newspaper-ads-and-more/>
3. YouTube Official Blog. (2018, July). Building a better news experience on YouTube, together. <https://youtube.googleblog.com/2018/07/building-better-news-experience-on.html>

²¹ <https://factchecking.uz/uz/2020/11/05/video-feykni-qanday-aniqlash-mumkin/>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



4. Chesney, R., & Citron, D. (2019). Deep Fakes: A Looming Challenge for Privacy, Democracy, and National Security. California Law Review, 107, 1753–1820.
5. Innovation Machine. (n.d.). Fake News: A Universal Solution. Medium. <https://medium.com/innovation-machine/fake-news-a-universal-solution-22895048f5e7>
6. The Guardian. (n.d.). International Edition. <https://www.theguardian.com/international>
7. Factchecking.uz. (2020, November 5). Videofeykni qanday aniqlash mumkin? <https://factchecking.uz/uz/2020/11/05/videofeykni-qanday-aniqlash-mumkin/>

